



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO'K: 616.9-036.86(575.14)

SAMARQAND VILOYATIDA YUQUMLI KASALLIKLAR TUFAYLI NOGIRONLIKNING EPIDEMIOLOGIK PROFILI VA JAMOAT SALOMATLIGI UCHUN AHAMIYATI



Ismatova Umida Foziljon qizi

Davolash ishi 3-kurs talabasi, Zarmed universiteti tibbiyot va bioinjeneriya instituti Samarqand kampusi, Samarqand, O'zbekiston

ismatovau0709@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-8560-5737>

Tel.: +998 94 079-34-33



Ilmiy rahbar: Zokirov Vohid Zoyit o'g'li

PhD, Klinik oldi fanlar kafedrası mudiri, Zarmed universiteti tibbiyot va bioinjeneriya instituti Buxoro kampusi, Buxoro, O'zbekiston

zokirovvohid@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0000-0000-0000>

Tel.: +998 93 084-08-60

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Samarqand viloyati tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TIEK) ma'lumotlari asosida yuqumli va parazitlar kasalliklar (MKB-10: A00–B99) tufayli nogironlikning epidemiologik profili tahlil qilindi. 110 885 nafar nogironlikka ega shaxslar bazasidan 3954 nafar yuqumli kasalliklar tufayli nogironlikka ega bemor aniqlandi. Sil kasalligi (63,1%), OIV infeksiyasi (21,5%) va poliomyelit oqibatlari (12,2%) asosiy sababchilar sifatida aniqlandi. Erkaklar ustunligi (53,8%), 45–59 yosh guruhining ko'pligi (36,9%) va qishloq aholisining yuqori ulushi (76,8%) kuzatildi. Natijalar yuqumli kasalliklar profilaktikasi va jamoat salomatligi dasturlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. yuqumli kasalliklar, nogironlik, sil kasalligi, OIV infeksiyasi, poliomyelit, jamoat salomatligi, epidemiologiya, Samarqand viloyati.

ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОФИЛЬ ИНВАЛИДНОСТИ ВСЛЕДСТВИЕ ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ

Исмамова У.Ф.¹, Зокиров В.З.²

¹Институт медицины и биоинженерии университета Zarmed, Самаркандский кампус,
Самарканд, Узбекистан

²Научный руководитель: Институт медицины и биоинженерии университета Zarmed,
Бухарский кампус, Бухара, Узбекистан



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Аннотация. В данном исследовании на основе данных медико-социальной экспертной комиссии (МСЭК) Самаркандской области был проведён анализ эпидемиологического профиля инвалидности, обусловленной инфекционными и паразитарными заболеваниями (МКБ-10: A00–B99). Из базы данных, включающей 110 885 лиц с инвалидностью, у 3954 пациентов установлена инвалидность вследствие инфекционных заболеваний. Основными причинами явились туберкулёз (63,1%), ВИЧ-инфекция (21,5%) и последствия полиомиелита (12,2%). Отмечено преобладание мужчин (53,8%), наибольшая доля приходится на возрастную группу 45–59 лет (36,9%), а также высокий удельный вес сельского населения (76,8%). Полученные результаты свидетельствуют о необходимости совершенствования профилактики инфекционных заболеваний и программ общественного здравоохранения.

Ключевые слова. Инфекционные заболевания, инвалидность, туберкулёз, ВИЧ-инфекция, полиомиелит, общественное здравоохранение, эпидемиология, Самаркандская область.

EPIDEMIOLOGICAL PROFILE OF DISABILITY CAUSED BY INFECTIOUS DISEASES IN THE SAMARKAND REGION AND ITS SIGNIFICANCE FOR PUBLIC HEALTH

Ismatova U.F.¹, Zokirov V.Z.²

¹Zarmed University Institute of Medicine and Bioengineering, Samarkand Campus, Samarkand, Uzbekistan

²Scientific Supervisor: Zarmed University Institute of Medicine and Bioengineering, Bukhara Campus, Bukhara, Uzbekistan

Abstract. This study analyzed the epidemiological profile of disability caused by infectious and parasitic diseases (ICD-10: A00–B99) based on data from the Medical and Social Expert Commission (MSEC) of the Samarkand region. Out of a database of 110,885 individuals with disabilities, 3,954 cases were identified as being caused by infectious diseases. Tuberculosis (63.1%), HIV infection (21.5%), and sequelae of poliomyelitis (12.2%) were identified as the leading causes. A predominance of males (53.8%), a higher proportion in the 45–59 age group (36.9%), and a significant share of rural population (76.8%) were observed. The results highlight the need to improve preventive measures for infectious diseases and to strengthen public health programs.

Keywords. Infectious diseases, disability, tuberculosis, HIV infection, poliomyelitis, public health, epidemiology, Samarkand region.

KIRISH

Yuqumli kasalliklar jahon miqyosida sog'liqni saqlashning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, nafaqat kasallanish va o'lim ko'rsatkichlariga, balki uzoq muddatli nogironlikka ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, sil kasalligi har yili 10 million yangi kasallanish holati va 1,3 million o'limga sabab bo'lmoqda [1]. OIV/OITS pandemiyasi butun dunyo bo'ylab 39 milliondan ortiq odamga ta'sir ko'rsatgan bo'lib, past va o'rta



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

daromadli mamlakatlarda bu kasallikning oqibatlari ayniqsa og'ir kechmoqda [2]. Poliomiyelet global miqyosda deyarli bartaraf etilgan bo'lsa-da, uning oqibatlari tufayli millionlab odamlar nogironlik bilan yashashda davom etmoqda [3].

O'zbekiston Respublikasida 2025-yil birinchi chorak holatiga 1 031 609 nafar shaxs nogironlikka ega bo'lib, yuqumli kasalliklar nogironlik sabablarining muhim qismini tashkil etadi [4]. Biroq mintaqaviy miqyosda, xususan alohida viloyatlar bo'yicha yuqumli kasalliklar tufayli nogironlikning nozologik tuzilmasi va epidemiologik xususiyatlari yetarli o'rganilmagan. Bunday tahlil jamoat salomatligi dasturlarini samarali rejalashtirish va resurslarni to'g'ri taqsimlash uchun zarurdir.

Tadqiqotning maqsadi — Samarqand viloyati TIEK ma'lumotlari asosida yuqumli va parazitlar kasalliklar tufayli nogironlikning nozologik tarkibi, demografik profili va hududiy taqsimlanishini o'rganish hamda jamoat salomatligi uchun ahamiyatini baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot materiali sifatida Samarqand viloyati Bosh TIEK elektron ma'lumotlar bazasidan 2025-yil 30-dekabr holatiga ro'yxatga olingan barcha nogironlikka ega shaxslar ma'lumotlari olindi. Umumiy baza 110 885 nafar shaxsni qamrab oldi. Ulardan MKB-10 xalqaro kasalliklar tasnifiga ko'ra yuqumli va parazitlar kasalliklar (A00–B99) rukniga kiruvchi 3954 nafar bemor ma'lumotlari ajratib tahlil qilindi.

Tadqiqotda retrospektiv, kesma (cross-sectional) dizayn qo'llanildi. Tahlil qilingan o'zgaruvchilar: jinsi, yoshi (2025-yil 30-dekabr holatiga hisoblangan), MKB-10 kodi va tashxis nomi, nogironlik guruhi, birlamchi yoki qayta ko'rik holati, nogironlik muddati, yashash joyi (shahar/qishloq) va tuman bo'yicha taqsimlanish.

Yuqumli kasalliklar quyidagi asosiy guruhlariga ajratildi: sil kasalligi (A15–A19), OIV infeksiyasi (B20–B24), poliomiyelet oqibatlari (B91), virusli gepatitlar (B15–B19), exinokokkoz (B67), bruselloz (A23) va boshqalar. Yosh guruhlari: 0–17, 18–29, 30–44, 45–59, 60–74 va 75+ yil tarzida tasniflandi.

Statistik ishlov berish Python 3.12 dasturiy muhitida pandas kutubxonasi yordamida amalga oshirildi. Ma'lumotlar mutlaq sonlar va foiz ko'rsatkichlari shaklida ifodalandi. Tavsifiy statistika usullari (o'rtacha, standart chetlanish, taqsimlanish) qo'llanildi.

NATIJALAR

Samarqand viloyati TIEK bazasida ro'yxatga olingan 110 885 nafar nogironlikka ega shaxslardan yuqumli va parazitlar kasalliklar (A00–B99) 3954 holatni tashkil etib, barcha nogironlik holatlarining 3,6% iga teng bo'ldi.

Bemorlarning jinsi bo'yicha 2127 nafar (53,8%) erkak va 1827 nafar (46,2%) ayol jinsi vakillari edi (nisbat 1,16:1). O'rtacha yosh $49,6 \pm 16,1$ yilni tashkil etdi. Yosh tarkibida 45–59 yosh guruhi ustunlik qilib (1460 nafar, 36,9%), undan keyin 60–74 yosh guruhi (946 nafar, 23,9%) va 30–44 yosh guruhi (844 nafar, 21,3%) turdi. Bolalar ulushi (0–17 yosh) 5,1% ni tashkil etdi.

Nozologik tuzilmada sil kasalligi (A15–A19) mutlaq ustunlik qilib, 2495 holatni (63,1%) tashkil etdi. Ularning ichida bakteriologik tasdiqlangan o'pka sili (A15.0) – 1216 holat (30,8%), suyak va bo'g'imlar sili (A18.0) – 1062 holat (26,9%), manfiy natijali o'pka sili (A16.0) – 76 holat, siydik-jinsiy organlar sili (A18.1) – 76 holat va sil meningiti (A17.0) – 19 holat kuzatildi.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

OIV infeksiyasi (B20–B24) ikkinchi o'rinda bo'lib, 849 holatni (21,5%) tashkil etdi. OIV bilan zararlanganlarning aksariyati yuqumli kasalliklar manifestatsiyasi bilan kechgan holatlar (B20 – 788 holat) edi. Poliomiylit oqibatlari (B91) uchinchi o'rinda – 484 holat (12,2%) qayd etildi. Boshqa tashxislar orasida exinokokkoz (B67) – 63 holat (1,6%), surunkali virusli gepatit (B18) – 28 holat (0,7%) va bruselloz (A23) – 12 holat (0,3%) aniqlandi.

Nogironlik guruhi bo'yicha II guruh ustunlik qildi – 3221 nafar (81,5%). III guruh 345 nafar (8,7%), «nogironligi bo'lgan bola» maqomi 209 nafar (5,3%) va I guruh 179 nafar (4,5%) ni tashkil etdi. Bemorlarning 82,1% i (3248 nafar) qayta ko'rikdan o'tgan, birlamchi murojaat 17,9% (706 nafar) ni tashkil etdi. Nogironlikning 70,1% i (2772 holat) muddatsiz belgilangan.

Yashash joyi bo'yicha 76,8% (3038 nafar) qishloq, 21,7% (859 nafar) shahar aholisi edi. Tumanlar orasida Urgut (13,6%), Samarqand shahri (12,1%), Pastdarg'om (10,9%) va Payariq (9,2%) eng ko'p holatlar qayd etilgan hududlar sifatida aniqlandi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar Samarqand viloyatida yuqumli kasalliklar tufayli nogironlik tuzilmasida sil kasalligining mutlaq ustunligini (63,1%) ko'rsatdi. Bu natija JSST ning sil kasalligi past va o'rta daromadli mamlakatlarda bosh o'ldiruvchi yuqumli kasallik bo'lib qolayotganligi to'g'risidagi xulosaiga mos keladi [1]. Suyak-bo'g'im silining yuqori ulushi (26,9%) alohida diqqatga sazovor bo'lib, bu patologiya ko'pincha kechroq tashxislanadi va og'ir nogironlikka olib keladi [5].

OIV infeksiyasining ikkinchi o'rinda turishi (21,5%) global tendentsiyalarga mos keladi. UNAIDS ma'lumotlariga ko'ra, antiretrovirus terapiyasining keng qo'llanilishi OIV bilan yashayotgan shaxslarning umr ko'rish davomiyligini oshirgan, biroq surunkali asoratlari va funksional cheklanishlar tufayli nogironlik holatlari ortib bormoqda [2]. Poliomiylit oqibatlarining uchinchi o'rinda turishi (12,2%) o'tgan davrlarda poliomiylit epidemiyalarining uzoq muddatli ta'sirini aks ettiradi [3].

Qishloq aholisining yuqori ulushi (76,8%) jamoat salomatligi dasturlari nuqtai nazaridan muhim topilma hisoblanadi. Qishloq joylarida yuqumli kasalliklarni erta aniqlash, diagnostik imkoniyatlar va davolash xizmatlarining cheklanganligi kasalliklarning kechroq tashxislanishiga va nogironlikning og'irroq shakllanishiga olib kelishi mumkin [6]. Shuningdek, sil kasalligining tarqalishi va OIV infeksiyasining nazorati qishloq sharoitida shaharga nisbatan murakkab vazifadir.

Nogironlikning 70,1% ining muddatsiz belgilanishi yuqumli kasalliklar oqibatlarining qaytmas tabiatini tasdiqlaydi va bu bemorlar uchun uzoq muddatli rehabilitatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlarining zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

1. Samarqand viloyatida yuqumli kasalliklar barcha nogironlik holatlarining 3,6% ini (3954 holat) tashkil etib, asosiy sababchilar sil kasalligi (63,1%), OIV infeksiyasi (21,5%) va poliomiylit oqibatlari (12,2%) bo'ldi.

2. Suyak-bo'g'im sili (26,9%) alohida muammo sifatida ko'rib, erta tashxislash va to'g'ri davolash strategiyalarini kuchaytirish zarur.

3. Qishloq aholisining yuqori ulushi (76,8%) sil va OIV profilaktikasi dasturlarini qishloq joylarida kengaytirish va diagnostik xizmatlarni yaqinlashtirish lozimligini ko'rsatadi.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

4. Jamoat salomatligi nuqtai nazaridan sil kasalligining birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini kuchaytirish, OIV infeksiyasini erta aniqlash hamda antiretrovirus terapiyasini kengaytirish muhim strategik yo‘nalishlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Health Organization. Global Tuberculosis Report 2024. Geneva: WHO, 2024.
2. UNAIDS. Global AIDS Update 2024: The Urgency of Now. Geneva: UNAIDS, 2024.
3. Thompson K.M., Kalkowska D.A. Review of poliovirus modeling: global eradication and beyond // Risk Analysis. – 2024. – Vol. 44. – P. 1532–1548.
4. O‘zbekiston Milliy aholini ijtimoiy himoya qilish agentligi. Nogironlikka ega shaxslar soni to‘g‘risida statistik axborot, 2025-yil 1-chorak.
5. Pigrau-Serrallach C., Rodriguez-Pardo D. Bone and joint tuberculosis // European Spine Journal. – 2013. – Vol. 22 (Suppl 4). – P. 556–566.
6. Viney K., Islam T., Hoa N.B. The burden of tuberculosis and access to care in central Asia // International Journal of Infectious Diseases. – 2021. – Vol. 113. – P. S69–S74.

